

Ekspert komissiyalari va
ekspertlar reyestrini yuritish tartibi to'g'risida

NIZOM

www.nqaae.uz

1-BOB

UMUMIY QOIDALAR


- 01** Mazkur Nizom o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini (keyingi o'rinlarda – ta'lim tashkilotlari) kompleks va maxsus akkreditatsiyadan o'tkazishda ta'lim sifatini tashqi baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan ekspert komissiyasini (keyingi o'rinlarda – Komissiya) tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyati tartibini belgilaydi.
- 02** Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni va 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-275-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq ishlab chiqilgan.



PF-76



Pq-275



VMQ-498

- 03** Davlat akkreditatsiyasini amalga oshirishda vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) hisoblanadi.

- 04** Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

davlat akkreditatsiyasi – ta'lim tashkiloti faoliyati davlat ta'lim standartlari (talablari) va ta'lim dasturlariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan, kompleks yoki maxsus akkreditatsiyani o'z ichiga oluvchi jarayondir;

kompleks davlat akkreditatsiyasi – ta'lim tashkilotini institutsional tashqi baholash natijalariga asoslangan jarayon;

maxsus davlat akkreditatsiyasi – ta'lim tashkilotida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga

oshiriladigan jarayon;

baholash yo'nalishi – davlat akkreditatsiya doirasida sifat va samaradorlikni baholash uchun belgilangan asosiy yo'nalishlar majmui bo'lib, boshqaruv, ta'lim sifati, o'quv jarayoni, inson resurslari, ta'lim oluvchilar faoliyati, moddiy-texnik baza kabi yo'nalishlarni qamrab oladi;

mezon – muayyan baholash yo'nalishida sifatga qo'yiladigan minimal talablar va standartlar majmui;

indikator – belgilangan mezon bajarilishini aniq, o'lchab bo'ladigan va asoslantiruvchi dalillar bilan tasdiqlanadigan ko'rsatkich;

ichki (o'zini o'zi) baholash – ta'lim tashkilotining belgilangan mezonlar va indikatorlar asosida o'z faoliyati samaradorligini kuzatishi, tahlil qilishi, baholashi hamda uni takomillashtirish choralari ko'rish jarayoni;

tashqi baholash – ta'lim tashkiloti faoliyati, kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifati davlat ta'lim standartlari (talablari) hamda akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligi bo'yicha baholash jarayoni;

ekspert komissiyasi – davlat akkreditatsiyasida tashqi baholashni amalga oshirish uchun tuziladigan maxsus komissiya;

ekspert – ta'lim tashkilotini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda tashqi baholashni amalga oshirish uchun jalb etilgan malakali mutaxassis;

ekspertlar reyestri – malakasi tasdiqlangan va tashqi baholashda ishtirok etish huquqiga ega ekspertlar ro'yxati;

mas'ul xodim – ekspert komissiyasining faoliyatini tashkiliy va texnik jihatdan muvofiqlashtirish uchun vakolatli bo'linma rahbari tomonidan platforma orqali birlashtiriladigan Agentlik mas'ul xodimi;

xolis ekspert – ekspert komissiyasining dastlabki va yakuniy hisobotlarini o'rganib, belgilangan mezon va indikatorlarga mos ravishda tuzilganligi, ushbu hisobotlarning xolisligi, ishonchiligi va asoslanganligi yuzasidan xolisona xulosa berish uchun jalb etiladigan yuqori malakali mutaxassis;

akkreditatsiya komissiyasi – ekspert komissiyasi hisobotlari va tavsiyalarini ko'rib chiqish, ta'lim tashkiloti (dasturi)ni davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiluvchi kollegial organ;

saralash ishchi guruhi – ekspertlarning malakasini baholash jarayonini tashkiliy jihatdan ta'minlovchi Metodologiya, ekspertlarni tayyorlash va reyestrlarni yuritish guruhi;

manfaatlar to'qnashuvi – ekspert komissiyasi a'zolari o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

2-BOB

EKSPERTLARNI SARALASH

VA ULARGA
QO'YILADIGAN TALABLAR

- 05 Agentlik ekspertlarni jalb qilish maqsadida rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda ochiq e'lonlarni joylashtirib boradi.
- 06 Davlat akkreditatsiyasiga jalb qilinadigan ekspertlikka nomzodlarni tanlovini o'tkazish bo'yicha maxsus ishchi guruh (keyingi o'rinlarda – saralash ishchi guruhi) tashkil etiladi.
- 07 Nomzod Agentlikning rasmiy veb-sayti orqali uning ma'lumotnoma (CV yoki rezyume)sini ilova qilgan holda ariza topshiradi.
- 08 Ekspertlikka nomzodlarni saralash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich

sun'iy intellekt bilan suhbat.

Nomzod ariza topshirganidan so'ng, unga sun'iy intellekt bilan suhbat tashkil etish uchun tegishli havola taqdim etiladi. Ushbu havola taqdim etilganidan so'ng, nomzod 3 kun ichida sun'iy intellekt bilan suhbatdan o'tishi lozim.

Nomzodda ingliz tili ko'nikmalari yetarli bo'lmagan taqdirda, suhbat nomzod erkin muloqot qila oladigan tilda onlayn yoki oflayn shaklida Agentlikning mas'ul mutaxassisleri tomonidan o'tkaziladi.

Ikkinchi bosqich

saralash ishchi guruhi bilan suhbat.

Birinchi bosqichdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodning kasbiy tayyorgarligi, ekspertlik salohiyati va kommunikativ ko'nikmalari saralash ishchi guruhi tomonidan onlayn yoki oflayn shaklda suhbat orqali baholanadi.

Ijobiy baholangan nomzodlar Agentlik tomonidan tashkil qilinadigan onlayn yoki oflayn shaklidagi qisqa muddatli tayyorlov treningidan o'tkaziladi va ushbu treningdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarga ekspertlik sertifikati beriladi hamda ekspertlar reyestriga kiritiladi.

09 Nomzodlarga umumiy va maxsus talablar qo'yiladi. Bunda umumiy talablar ta'lim turidan qat'iy nazar barcha uchun teng nisbatda, maxsus talablar esa har bir ta'lim turi (o'rta maxsus, kasbiy, oliy, oliy ta'limdan keyingi ta'lim hamda kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish) uchun alohida qo'llaniladi.

10 Umumiy talablar:

- akademik boshqaruv, strategik rejalashtirish, o'quv dasturlar ishlab chiqish yoki ichki nazorat sohalaridan xabardor bo'lish
- Tegishli soha yoki yo'nalish bo'yicha mutaxassis bo'lish
- Milliy va xalqaro ta'lim sifatini ta'minlash hamda tashqi baholash standartlari bilan tanish bo'lish
- Tashkiliy hujjatlar va ta'limga oid qonunchilik hujjatlaridan xabardor bo'lish
- Natijalarni tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish
- Manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lmasligi, betaraflik, maxfiylik
- Suhbat o'tkazish, hisobot tayyorlash va jamoada ishlash uchun zarur muloqot ko'nikmalariga ega bo'lish
- Davlat tilini yaxshi bilish (xorijiy ekspertlar bundan mustasno) hamda baholanayotgan ta'lim dasturi yuritiladigan tilni tushunish
- Hujjatlarni o'rganish, tashriflar, muhokamalar va hisobot tayyorlashda to'liq ishtirok etishga tayyor bo'lish

11 Maxsus talablar

A O'рта maxsus ta'limi:

- » Tegishli sohada bakalavr yoki undan yuqori darajadagi oliy ma'lumot
- » O'рта maxsus ta'lim tizimida ta'lim dasturlari va o'quv jarayonlarini tashkil etish tajribasi
- » Tegishli akademik sohada kamida 3 yillik ish tajribasi
- » Tahlil qilish, baholash, hisobot tayyorlash va mustaqil fikrlash salohiyati
- » Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan akkreditatsiya axborot tizimlari, elektron hujjat yuritish va masofaviy baholash vositalari bilan ishlash ko'nikmalari
- » Akkreditatsiya jarayonlarida baholash mezonlari va indikatorlari bilan ishlash, dalillarga asoslangan baholashni amalga oshirish hamda xolis va asoslantirilgan ekspert xulosasi tayyorlash bo'yicha yetarli kasbiy kompetensiya

B Kasbiy ta'lim

- » Tegishli sohada bakalavr yoki undan yuqori darajadagi oliy ma'lumot
- » Kasbiy ta'lim tizimida ta'lim dasturlari va o'quv jarayonlarini tashkil etish bo'yicha ish tajribasi
- » Tegishli tarmoq sohasida kamida 3 yillik ish tajribasi
- » Tahlil qilish, baholash, hisobot tayyorlash va mustaqil fikrlash salohiyati
- » Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan akkreditatsiya axborot tizimlari, elektron hujjat yuritish va masofaviy baholash vositalari bilan ishlash ko'nikmalari
- » Akkreditatsiya jarayonlarida baholash mezonlari va indikatorlari bilan ishlash, dalillarga asoslangan baholashni amalga oshirish hamda xolis va asoslantirilgan ekspert xulosasi tayyorlash bo'yicha yetarli kasbiy kompetensiya

Oliy ta'lim

- Tegishli sohada kamida magistr darajasidagi oliy ma'lumot (falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasi ustunlik sifatida baholanadi)
- O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish bo'yicha amaliy ish tajribasi
- Oliy ta'lim tizimida ta'lim dasturlari va o'quv jarayonlarini tashkil etish bo'yicha ish tajribasi
- Tegishli tarmoq sohasida kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi
- Akademik va ilmiy faoliyat tajribasi (Scopus, Web of Science va boshqa nufuzli xalqaro ilmiy bazalarda indeksatsiya qilingan yuqori impakt faktorli ilmiy jurnallarda ilmiy nashrlari mavjudligi ustunlik sifatida baholanadi)
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan akkreditatsiya axborot tizimlari, elektron hujjat yuritish va masofaviy baholash vositalari bilan ishlash ko'nikmalari
- Akkreditatsiya jarayonlarida baholash mezonlari va indikatorlari bilan ishlash, dalillarga asoslangan baholashni amalga oshirish hamda xolis va asoslantirilgan ekspert xulosasi tayyorlash bo'yicha yetarli kasbiy kompetensiya

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim

- Tegishli ixtisoslik bo'yicha kamida falsafa doktori (PhD) ilmiy unvoni
- Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimida ta'lim dasturlari va o'quv jarayonlarini tashkil etish bo'yicha ish tajribasi
- Akademik faoliyat, sanoat yoki ilmiy-tadqiqot sohasida kamida 5 yillik ish tajribasi
- Ilmiy faoliyat tajribasiga ega bo'lishi, shu jumladan nufuzli umum e'tirof etilgan yuqori impakt faktorli (Scopus, Web of Science va boshqalar) jurnallarda ilmiy nashrlari
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan akkreditatsiya axborot tizimlari, elektron hujjat yuritish va masofaviy baholash vositalari bilan ishlash ko'nikmalari
- Akkreditatsiya jarayonlarida baholash mezonlari va indikatorlari bilan ishlash, dalillarga asoslangan baholashni amalga oshirish hamda xolis va asoslantirilgan ekspert xulosasi tayyorlash bo'yicha yetarli kasbiy kompetensiya

Kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish

- Tegishli sohada kamida magistr darajasi (falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasi ustunlik sifatida baholanadi)
- Kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida o'quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish, shuningdek, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, joriy etish va baholash bo'yicha amaliy ish tajribasi
- Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari bo'yicha ta'lim dasturlari, o'quv rejalari hamda o'quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqish va (yoki) ularni ekspertizadan o'tkazish tajribasi
- Tegishli tarmoq yoki professional sohada kamida 5 yil uzluksiz ish tajribasi
- Akademik va ilmiy faoliyat tajribasi (Scopus, Web of Science va boshqa nufuzli xalqaro ilmiy bazalarda indeksatsiya qilingan yuqori impakt faktorli ilmiy jurnallarda ilmiy nashrlari mavjudligi ustunlik sifatida baholanadi)
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan akkreditatsiya axborot tizimlari, elektron hujjat yuritish va masofaviy baholash vositalari bilan ishlash ko'nikmalari
- Akkreditatsiya jarayonlarida baholash mezonlari va indikatorlari bilan ishlash, dalillarga asoslangan baholashni amalga oshirish hamda xolis va asoslantirilgan ekspert xulosasi tayyorlash bo'yicha yetarli kasbiy kompetensiya

12 Ekspert komissiyasi tarkibiga kiritiladigan mutaxassislar o'zining kasbiy tajribasi, malakasi va ilgari amalga oshirgan faoliyati yuzasidan quyidagi mezonlarga mos kelishi lozim



Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari rektori, prorektori, fakultet dekani yoki o'quv ishlari bo'yicha rahbar lavozimida ishlagan, shuningdek kasb-hunar ta'limida direktor, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari yoki o'quv-uslubiy bo'lim rahbari sifatida tajriba orttirgan hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarida direktor, ilmiy kotib yoki ilmiy bo'lim rahbari sifatida faoliyat yuritgan bo'lishi



Ta'lim sifatini ta'minlash yo'nalishi bo'yicha ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini joriy etish, baholash yoki monitoring qilish bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lishi, sifati menejmenti, akkreditatsiya yoki reyting tizimlarida milliy yoki xalqaro darajada ishtirok etgan bo'lishi



Talabalar faoliyati yo'nalishi bo'yicha talabalarning qabul, o'qishni davom ettirish, transfer, akademik mobillik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash jarayonlarini boshqarish tajribasiga ega bo'lishi, shuningdek, dekan o'rinbosari, akademik litsey yoki texnikum bo'lim mudiri sifatida ishlagan bo'lishi



O'quv jarayonini tashkil etish yo'nalishi bo'yicha o'quv-uslubiy bo'lim yoki markaz rahbari, metodist yoki o'quv rejalashtirish sohasida tajriba orttirgan mutaxassis bo'lishi, o'quv jarayonlarini rejalashtirish va nazorat qilishda kamida uch yillik amaliy tajribaga ega bo'lishi



Inson resurslari yo'nalishi bo'yicha kadrlar siyosatini tashkil etish, pedagog kadrlarni tanlash, attestatsiya yoki malaka oshirish jarayonlarini boshqarish bo'yicha tajribaga ega bo'lishi, shuningdek ta'lim tizimida inson resurslarini rivojlantirish, rag'batlantirish va baholash mexanizmlarini yo'lga qo'yish bo'yicha amaliy faoliyat yuritgan bo'lishi



Ilmiy-tadqiqot faoliyati yo'nalishi bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lishi, ilmiy-tadqiqot loyihalar rahbari yoki ilmiy bo'lim boshlig'i sifatida faoliyat yuritgan bo'lishi, xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop ettirgan hamda ilmiy kengashlarda ishtirok etgan bo'lishi



Talabalarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi bo'yicha talabalar bilan ishlash, psixologik yoki karyera maslahati, yoshlar siyosati, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, bandlik va talabalarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash yo'nalishida amaliy tajribaga ega bo'lishi



Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi bo'yicha moliya, xo'jalik, infratuzilma yoki texnik ta'minot sohasida boshqaruv tajribasiga ega bo'lishi, shuningdek, o'quv laboratoriyalari, axborot-resurs markazlari, axborot tizimlari yoki o'quv binolar bilan ishlash tajribasiga ega bo'lishi lozim

13

Alohida holatlarda, shu jumladan ilm-fan va ta'limda yuqori natijalarga erishgan nufuzli akademiklar, olimlar, professor-o'qituvchilar va boshqa mutaxassislar Agentlikning tashabbusiga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri ekspertlikka qabul qilinishi mumkin

3-BOB

EKSPERTLARNING TOIFALARI

14 Ekspertlar quyidagi toifalar bo'yicha sertifikatlanadi

yetakchi ekspert

I toifa

yuqori malaka va katta tajribaga ega, mustaqil baholay oladigan, yuqori natijalarga ega

tajribali ekspert

II toifa

bir nechta akkreditatsiya jarayonlarida ishtirok etgan, natijalari barqaror va yetarli

kichik ekspert

III toifa

kamida bir marotaba davlat akkreditatsiyasi jarayonida ishtirok etgan, natijalari barqaror va yetarli



Toifasiz ekspert – davlat akkreditatsiyasi jarayonlariga ilk marotaba ishtirok etayotgan va ekspertlar reyestriga kiritilgan mutaxassis

15 Ekspertlar toifasi Agentlik tomonidan taqdim qilinadigan sertifikat asosida tasdiqlanadi. Sertifikat QR-kod bilan tasdiqlangan holda bir yil muddatga beriladi

16 Ekspertlar reyestriga kiritilgan ekspertlarga platformada maxsus shaxsiy kabinet ochiladi va davlat akkreditatsiyasi bilan bog'liq barcha jarayonlar mazkur kabinet orqali amalga oshiriladi

EKSPERTLAR REYESTRINI

YURITISH
TARTIBI

- 17 Ekspertlar reyestri Metodologiya, ekspertlarni tayyorlash va reyestrlarni yuritish guruhi tomonidan yuritiladi
- 18 Metodologiya, ekspertlarni tayyorlash va reyestrlarni yuritish guruhi ekspertlarni reyestrغا kiritish, chiqarish va ular faoliyatining monitoringini olib boradi
- 19 Reyestrغا ekspertni kiritish nomzodning arizasi asosida yoki Agentlikning tashabbusi bilan amalga oshiriladi
- 20 Istisno tariqasida, Agentlikning tashabbusiga ko'ra ekspertlikka qabul qilingan nomzodlar sinovlarsiz to'g'ridan-to'g'ri reyestrغا kiritiladi hamda ularga belgilangan namunadagi sertifikat beriladi
- 21 Ekspert o'ziga yuklatilgan vazifalarni lozim darajada bajarmaganda, ekspertlik xulosasi noto'g'ri tuzilgan deb topilganda, faoliyatida qoidabuzarliklar aniqlanganda yoki uning faoliyati salbiy baholanganda Agentlik tomonidan berilgan sertifikat bekor qilinadi va ekspertlar reyestrдан chiqariladi
- 22 Ekspertlar reyestri "accreditation.nqaae.uz" elektron platformasida yuritiladi

5-BOB

EKSPERT KOMISSIYASI FAOLIYATI

23 Ekspert komissiyasi tashqi baholashni amalga oshirish maqsadida davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish uchun kasblar, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar va o'quv kurslarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi

24 Ekspert komissiyasi davlat akkreditatsiyasi jarayoni va ta'lim tashkilotiga tashrifi davomida xolislik, ishonchlilik, yaxlitlik, ochiqlik, shaffoflik va odob-axloq me'yorlariga rioya etish kabi asosiy prinsiplarga tayanadi

25 Ekspert komissiyasi quyidagi tarkibda shakllantiriladi



kompleks davlat akkreditatsiyasi

komissiya raisi va kamida
3 nafar a'zo



maxsus davlat akkreditatsiyasi

komissiya raisi va kamida
1 nafar a'zo

26 Ekspert komissiyasi o'z faoliyatini boshlashidan oldin ekspertning odob-axloq qoidalari bilan tanishadi hamda manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi va maxfiylikni ta'minlashi to'g'risidagi tilxat bilan tanishgan holda imzolaydi

27 Ekspert ta'lim tashkiloti va ular o'rtasida ta'lim tashkilotini tashqi baholash jarayonida salbiy ta'sirni vujudga keltirib chiqaradigan har qanday aloqalar yoki shaxsiy manfaatlar to'g'risida mas'ul xodimni xabardor qilishi shart

28 Agentlik ekspert komissiyasini quyidagi hujjatlar bilan ta'minlaydi

- »» Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning baholash yo'nalishlari va mezonlari hamda baholash indikatorlari
- »» Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga doir normativ-huquqiy hujjatlar
- »» Ta'lim tashkilotining ichki baholash hisoboti va unga qo'shimcha qilingan hujjatlar

tashqi baholash yakunlari bo'yicha hisobot shakli namunasi

EKSPERT KOMISSIYASI

VAZIFALARI

29 Asosiy vazifalar quyidagilardan iborat

A Ekspert komissiyasi

- Ta'lim tashkilotlari tomonidan tayyorlangan ichki baholash hisobotlarining to'liqligi va muvofiqligini ko'rib chiqish
- Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari asosida tashqi baholashni amalga oshirish
- Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda (zarur hollarda) ta'lim tashkilotlarini joyiga chiqqan holda o'rganish
- Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish natijalari bo'yicha hisobotlarni tayyorlash
- Davlat akkreditatsiyasi davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ta'lim tashkilotini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar (chora-tadbirlar)ni ishlab chiqish va Akkreditatsiya komissiyasiga taqdim qilish
- Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish natijalari bo'yicha hisobotni Akkreditatsiya komissiyasiga taqdim qilish

B Komissiya raisi

- Baholash jarayonlarini muvofiqlashtirish
- Davlat akkreditatsiyasi doirasida yig'ilishlar o'tkazish va yakuniy qarorlarni rasmiylashtirishni ta'minlash
- Ta'lim tashkilotiga tashrif buyurish grafigini shakllantirish jarayonlarida ishtirok etish

- Ekspert komissiyasi faoliyati to'g'risidagi va tashqi baholash jarayonlari bo'yicha mas'ul xodim bilan axborot almashib borish
- Ekspert komissiyasi yig'ilishi kun tartibini belgilash va uni tashkil etish
- Tashqi baholash va joyiga chiqqan holda o'rganish davomida ekspert komissiyasi a'zolarining rejalashtirilgan uchrashuvlarda ishtirokini ta'minlash va ularning tashqi baholash maqsadlariga muvofiq faoliyat olib borishini nazorat qilish
- Ekspert xulosasining xolis, asosli va belgilangan mezonlarga muvofiq tayyorlanishini ta'minlash
- Ekspert komissiyasi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish
- Davlat akkreditatsiyasi natijalari bo'yicha hisobot va taklif (chora-tadbirlarni) belgilangan talablarga muvofiqligini komissiya a'zolari bilan muhokama qilish va yakuniy xulosani shakllantirishini ta'minlash hamda ularni o'z vaqtida Akkreditatsiya komissiyasiga taqdim qilish



Komissiya a'zosi

- Ichki hisobotlarni to'liq o'rganib chiqish
- O'z yo'nalishi (ta'lim dasturi, fan, modul yoki kompetensiya) bo'yicha baholashni amalga oshirish
- Mavjud ma'lumotlar asosida dastlabki hisobot shaklini tayyorlash
- Mas'ul xodim va komissiya raisi bilan ta'lim tashkilotiga tashrif buyurish rejasi, tashrif davomida amalga oshiriladigan ishlar va ko'rib chiqiladigan savollarni shakllantirish
- Dalillar asosida xulosa va takliflar tayyorlash
- Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish
- Tashqi baholash jarayoni bilan bog'liq barcha uchrashuv va yig'ilishlarda to'liq qatnashishdan iborat

Mas'ul xodim

- Ta'lim tashkilotiga tashrif buyurish davomida ekspert komissiyasiga tashkiliy jarayonlarda ko'maklashish
- Tashqi baholash va qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etmasdan, betaraf kuzatuvchi sifatida faoliyat olib borish
- Ekspert komissiyasi tomonidan baholash standartlarning barcha mezonlarini bir xil tatbiq etilayotganini ta'minlash
- Ta'lim tashkilotlariga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish va jarayonning dalillarga asoslanganligini kuzatish
- Ta'lim tashkiloti ma'lumotlari va ekspert komissiyasi muhokamalarining maxfiylikini qat'iy ta'minlash
- Tashqi baholash jarayonini huquqiy va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish
- Kelgusidagi tashqi baholash jarayonlarini o'tkazish bo'yicha muammo va takliflarni Agentlik rahbariyatiga taqdim etadi

30 Manfaatlar to'qnashuvi va tashqi baholash samaradorligiga salbiy ta'sir qiladigan omillarning oldini olish maqsadida, qoida tariqasida, quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi

- ekspert komissiyasi tarkibiga bir tashkilotning ikki nafardan ortiq vakilini jalb qilishga
- ekspert komissiyasi tarkibiga birinchi marotaba davlat akkreditatsiyasi jarayonlarida ishtirok etayotgan bir nafardan ortiq mutaxassisni jalb etishga

31 Ekspertlar tomonidan davlat akkreditatsiyasi quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi

A Ta'lim dasturlarini tashqi baholashda

- ichki baholash natijalarini ko'rib chiqish va dastlabki hisobotlarni shakllantirish uchun – 15 ish kunigacha
- masofaviy yoki joyiga chiqqan holda o'rganish (zarur hollarda) uchun qo'shimcha – 5 ish kunigacha
- yakuniy hisobotlarni shakllantirish uchun – 15 ish kunigacha

B Ta'lim tashkilotini tashqi baholashda

- har bir ta'lim dasturi bo'yicha ichki baholash natijalarini ko'rib chiqish va dastlabki hisobotlarni shakllantirish uchun – 15 ish kunigacha
- joyiga chiqqan holda o'rganish uchun qo'shimcha – 10 ish kunigacha
- yakuniy hisobotlarni shakllantirish va Akkreditatsiya komissiyasidan tasdiqlatish uchun – 15 ish kunigacha

7-BOB

MASOFAVIY O‘RGANISH

- 32** Davlat akkreditatsiyasi doirasida masofaviy o‘rganishning barcha jarayonlari platformada amalga oshiriladi
- 33** Ekspert komissiyasi masofaviy o‘rganishda ichki (o‘zini o‘zi) baholash hisobotini o‘rganadi. Mazkur o‘rganish asosida ekspert xulosasi platformaning o‘zida tayyorlanishi lozim
- 34** Mas’ul xodim ekspert komissiyasi raisi va a’zolarining shaxsiy kabinetiga kirish ruxsatini beradi
- 35** Ekspert komissiyasi a’zolari komissiya raisi tomonidan belgilangan ishlar taqsimotiga muvofiq, platformaga yuklangan hujjatlarni tahlil qiladi hamda ular asosida har bir komissiya a’zosi o‘z xulosasini shakllantiradi
- 36** Komissiya a’zolarining xulosalari rais yoki rais tomonidan birlashtirilgan mas’ul (komissiya a’zosi) tomonidan umumlashtiriladi hamda dastlabki xulosa shakllantiriladi

8-BOB

JOYIGA CHIQQAN HOLDA O‘RGANISH

- 37** Ekspert komissiyasi tashqi baholash jarayonida joyiga chiqqan holda o‘rganishni tashkil etadi
- Bunda maxsus akkreditatsiya doirasida ta’lim tashkiloti tomonidan indikatorlar bo‘yicha to‘liq muvofiqlikni asoslovchi hujjatlar taqdim etilgan taqdirda, ekspert komissiyasi masofaviy shaklda (joyiga chiqmagan holda) yakuniy hisobotni shakllantirishi mumkin
- 38** Joyiga chiqqan holda o‘rganishni amalga oshirishdan avval ekspert komissiyasi ushbu o‘rganish davomida aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar bo‘yicha savolnoma tayyorlashi va mas’ul xodim bilan kelishishi lozim
- 39** Savolnomada ko‘rsatilgan holatlarni o‘rganishda ekspert komissiyasi tomonidan ta’lim tashkiloti rahbariyati va mas’ul xodimlari, pedagoglar, ish beruvchilar, tinglovchilar (talabalar, o‘quvchilar) bilan suhbat (intervyu) tashkil etilishi mumkin

9-BOB

DAVLAT AKKREDITATSIYASI

HISOBOTLARINI SHAKLLANTIRISH VA TOPSHIRISH

- 40** Ekspert komissiyasi tomonidan maxsus davlat akkreditatsiyasida har bir ta'lim dasturi bo'yicha alohida, kompleks davlat akkreditatsiyasida esa ta'lim tashkiloti bo'yicha umumiy hisobot tayyorlanadi
- 41** Tashqi baholash bo'yicha tayyorlangan dastlabki hisobot platforma orqali ta'lim tashkilotiga yuboriladi va 3 kun muddatda uning taklif va e'tirozlari qabul qilinadi
- 42** Ta'lim tashkiloti tomonidan taqdim etilgan taklif va e'tirozlar asosida ekspert komissiyasi tomonidan yakuniy hisobot tayyorlanadi va Akkreditatsiya komissiyasidan o'tkaziladi
- 43** Ekspert komissiyalari tomonidan davlat akkreditatsiyasi davomida olingan maxfiy yoki tarqatilishi mumkin bo'lmagan ma'lumot va hujjatlarni yo'q qilinishi yoki mas'ul xodimga dalolatnoma asosida topshirilishi shart
- 44** Ekspert komissiyalari tashqi baholash natijalari Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan rasmiy e'lon qilinguniga qadar boshqa shaxslarga oshkor qilinmasligini ta'minlaydi
- 45** Ekspert komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda hisobot taqdim etilmagan hollarda komissiya raisi tomonidan ushbu muddatni uzaytirish to'g'risida asoslantirilgan yozma xat bilan Agentlikka murojaat qiladi

Agentlik tomonidan yozma murojaatni ko'rib chiqish natijalariga binoan, belgilangan muddatlar qo'shimcha ravishda **5 ish kunigacha** uzaytirilishi mumkin

10-BOB

EKSPERTNI BAHOLASH

- 46** Ekspertni baholashning asosiy maqsadi – davlat akkreditatsiyasi sifati va xolisligini oshirish, akkreditatsiya tizimining ishonchligini kuchaytirish va ekspertlarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash hisoblanadi

47 Ekspertni baholash qonuniylik, xolislik, betaraflik, shaffoflik, hisobdorlik, dalillarga asoslanganlik, mutanosiblik, maxfiylik va rivojlanishga yo'naltirilganlik kabi tamoyillarga asoslanishi lozim


48 Ekspert quyidagilar tomonidan baholanadi

A komissiya raisi – ekspertning professional ishtirokini, baholash xulosalarining dalillarga asoslanganligini, mezonlar va indikatorlarni to'g'ri qo'llashini, komissiya ishida faolligini hamda hisobot materiallarini tayyorlashga qo'shgan hissasini

B xolis ekspert tomonidan – tashqi baholash jarayonida ekspert komissiyasining dastlabki va yakuniy xulosani o'rganib, mezon va indikatorlarga mos ravishda tuzilganligi, ushbu hisobotlarning xolisligi, ishonchliligi va asoslanganligi yuzasidan taqdim etiladigan xulosaga asosan

C mas'ul xodim – ekspertning belgilangan muddatlarga rioya etishini, hujjatlashtirish sifati va to'liqligini, xolislik hamda maxfiylik talablariga amal qilishini, shuningdek, manfaatlar to'qnashuvi xavflarining oldini olish bo'yicha talablarni bajarishini

49 Ekspert quyidagi asosiy mezonlar bo'yicha elektron platforma orqali baholanadi



50 Baholash natijalari quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi

- Ekspertlar reyestrini yangilash
- Ekspertlarning malakasini oshirish
- Keyingi akkreditatsiya jarayonlariga jalb qilish yoki jalb etishni cheklash

51 Baholash natijalariga ko'ra yuqori ko'rsatkichga ega ekspert

- Keyingi akkreditatsiyalarga ustuvor tarzda jalb qilinishi
- “yetakchi ekspert” maqomi berilishi
- Tajriba almashish imkoniyatlari taqdim etilishi
- Moddiy rag'batlantirilishi mumkin

Aksincha faoliyatida past samaradorlik yoki qoidabuzarlik holatlari aniqlangan ekspert

- Yozma ogohlantirilishi
- Akkreditatsiya jarayonida ishtirokini vaqtincha cheklash
- Ekspertlar reyestridan vaqtincha yoki butunlay chiqarilishi mumkin

52 Ekspert faoliyatida qonunbuzarlik, korrupsiogen yoki manfaatlar to'qnashuvi holatlari sodir etilganda, holat bo'yicha to'plangan hujjatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish uchun vakolatli davlat organiga yuboriladi

11-BOB

EKSPERTLIK FAOLIYATI HAQI

53 Ekspert komissiyasi raisi va a'zolar bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuziladi va ularning mehnatiga haq to'lanadi

54 Ekspertga bajaradigan ish hajmi, ekspert toifasi va ekspert komissiyasidagi vazifasi (rais yoki a'zo) hamda ta'lim turidan kelib chiqib haq to'lanadi. Unga ko'ra:

- Davlat akkreditatsiyasi jarayonlarida ta'lim dasturlarini ko'rib chiqishda har bir ta'lim dasturini tashqi baholash uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravaridan 6 baravarigacha
- Kompleks davlat akkreditatsiyasida har bir ta'lim tashkilotini tashqi baholashdan o'tkazish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravaridan 20 baravarigacha haq to'lanadi

- 55** Joyiga chiqib o'rganish bilan bog'liq, shu jumladan transport, mehmonxona, kunlik xarajatlar Agentlik tomonidan qoplanadi
- 56** Ekspertlarning samarali faoliyatini inobatga olgan holda Agentlik tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravarigacha qo'shimcha rag'batlantirilishi mumkin
- 57** Ekspertlarning o'z vazifasini to'liq bajarmasligi yoki bajarishni rad etishi o'z majburiyatlarini bajarmagan deb topilishiga hamda unga to'lanadigan to'lovning qisman to'lanishiga yoki umuman to'lanmasligiga sabab bo'ladi
- 58** Ekspert ta'lim tashkiloti yoki ta'lim dasturini o'rganish natijasi bo'yicha hisoboti uchun shaxsan javobgar hisoblanadi
- 59** Ekspertning xulosasi lozim darajada o'rganilmagan yoki belgilangan talablarga rioya etmagan holda tuzilganligi aniqlangan taqdirda, ekspert bilan tuzilgan shartnomada belgilangan miqdordagi to'lov amalga oshirilmaydi
- Agarda, shartnoma bo'yicha to'lov o'tkazilgan bo'lsa shartnomani bekor qilish haqida sudga murojaat qilish orqali to'lov hamda Agentlik nufuziga yetkazilgan zarar va sud xarajatlari undirib olinadi

12-BOB

YAKUNIY

QOIDALAR

- 60** Tashqi baholash jarayonida ekspert komissiyasining faoliyati bo'yicha noroziliklar yoki noqonuniy harakatlar haqida shikoyatlar kelib tushgan taqdirda, ular belgilangan tartibda Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi



Indicators for evaluation criteria during program accreditation of educational programs of higher educational institutions



Indicators for evaluation criteria during institutional accreditation of higher educational institutions



Indicators for evaluation criteria during program accreditation of educational programs of vocational educational institutions



Indicators for evaluation criteria during institutional accreditation of vocational educational institutions



Indicators for evaluation criteria during institutional and program accreditation of secondary specialized educational institutions



It is recommended to open the QR code links using the Google Chrome browser. If necessary, the built-in translation function of the browser may be used.

EKSPERT KOMISSIYA
A'ZOLARINING ODOB-AXLOQ

QOIDALARI

Mazkur odob-axloq qoidalarini jalb qilingan ekspert komissiyaning har bir a'zosi uchun davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda ta'lim sifatini tashqi baholash bilan bog'liq ekspertlik faoliyatini amalga oshirishda o'z xatti-harakatlari va xulq-atvor qoidalarini belgilaydi.

Ekspert komissiyasi faoliyati ta'lim tashkilotining o'zini o'zi baholash natijalarining to'liqligi va ishonchligini baholashga, davlat akkreditatsiyasi standartlariga muvofiq ta'lim tashkiloti (dasturi) sifatini tashqi baholashga qaratilgan.

Ekspert komissiyalari a'zolarining faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil

5-maydagi PF-76-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi

498-son qarori, davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning baholash yo'nalishlari

va mezonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik)ning tegishli topshiriqlari va ko'rsatmalari, Ekspert komissiyalari to'g'risidagi nizomi va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ekspert komissiyasi a'zosi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

a) ekspert komissiyasi tarkibiga kiritilishidan oldin ta'lim tashkilotini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda komissiya ishida ishtirok etishiga to'sqinlik qiladigan holatlar mavjud emasligi to'g'risida Agentlikni xabardor qilish;

b) tashqi baholashdan o'tkazishda Agentlik tomonidan berilgan vakolatlaridan boshqa harakatlarni amalga oshirmaslik;

v) o'z vazifalarini samarali va belgilangan vaqt ichida Agentlikka yakuniy hisobot uchun materiallarni taqdim etish, ichki baholash natijasini baholashning obyektivligini ta'minlash;

g) o'z faoliyati davomida xolislik, ishonchlilik, yaxlitlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplariga rioya qilish;

d) boshqa tashqi ekspertlar va davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladigan ta'lim tashkilotining xodimlari bilan munosabatlarini o'zaro hurmat asosida qurish, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan bayonot va iboralarni ishlatmaslik;

e) davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda o'zi faoliyat olib borayotgan tashkilotidagi ish tajribalarini eng yaxshi amaliyot namunasi sifatida keltirmasdan va boshqa ta'lim tashkilotlari bilan taqqoslamasdan, davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning baholash yo'nalishlari va mezonlari asosida jamoaviy hamda komissiya muhokamalarida obyektiv yondashuvlar asosida qaror qabul qilish;

f) o'z faoliyati davomida olingan maxfiy ma'lumotlarni uchinchi shaxsga oshkor qilmaslik;

h) Agentlik bilan tuzilgan shartnoma davrida faqat Agentlik tomonidan amalga oshiriladigan davlat akkreditatsiyasi jarayonlarida ishtirok etish, agarda boshqa akkreditatsiya tashkilotlari ishida qatnashadigan ekspert bo'lsa, ushbu faoliyati to'g'risida Agentlikni oldindan ogohlantirish;

i) davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladigan ta'lim tashkiloti xodimlaridan va shu tashkilotga aloqador boshqa shaxslardan har qanday shaklda ish haqi yoki qo'shimcha to'lovlar olmaslik;

j) davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladigan ta'lim tashkilotiga tashrif davomida ta'lim tashkiloti yoki boshqa shaxslarning hisobidan ovqatlanish (tushlik, kechki ovqat va boshqalar) va qo'shimcha xizmatlar talab qilmaslik;

k) faqat Agentlik tomondan birlashtirilgan mas'ul xodim orqali muloqot qilish, ekspert komissiyasi ekspertlari ta'lim tashkilotiga borgan holda o'rganish holatlari bundan mustasno;

l) Agentlik faoliyati va uning xodimlari to'g'risida jamoatchilikning ijobiy fikrini shakllantirishga intilish.

Odob-axloq qoidalari talablarining buzilishi ekspert komissiyasi bilan munosabatlarni to'xtatishga va ekspert komissiyasi tarkibidagi a'zolarini bekor qilinishiga olib keladi.

Odob-axloq qoidalari hammaga ochiq va oshkor hujjat bo'lib, davlat akkreditatsiyasi jarayonlarida ishtirok etadigan ekspert komissiyalari barcha a'zolaridan ushbu hujjat bilan tanishishni talab qiladi.

EKSPERT KOMISSIYALARI VA
EKSPERTLAR REYESTRINI YURITISH
TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMGA
3-ILOVA

MANFAATLAR TO'QNASHUVI MAVJUD EMASLIGI
VA MAXFIYLIKNI TA'MINLASH TO'G'RISIDA

TILXAT

Men, _____
(F.I.Sh.)

(ta'lim tashkiloti nomi)

ni tashqi baholash paytida ekspert komissiyasi sifatida o'z faoliyatimni amalga oshirishimda, Ekspert komissiyalari a'zolarining odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya qilish majburiyatini o'z zimnamga olaman hamda quyidagilarga:

a) men va ta'lim tashkiloti o'rtasida quyidagi manfaatlar to'qnashuvlari mavjud emasligiga kafolat beraman:

ushbu ta'lim tashkilotining xodimi, talabasi, so'ngi 5 yilda bitiruvchisi yoki manfaatdor shaxs emasman va bo'lmaganman;

muqaddam akkreditatsiyasidan o'tayotgan ta'lim tashkilotiga akkreditatsiya jarayoni bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatmaganman va taqdim etmaganman;

ushbu ta'lim tashkilotiga ishga kirish bo'yicha suhbat yoki tanlovlarda ishtirok etmaganman;

ushbu ta'lim tashkiloti bilan hech qanday shaxsiy ziddiyatlarim mavjud emas va bo'lmagan;

b) tashqi baholash jarayonlarida quyidagi majburiyatlarni o'z zimnamga olaman:

tashqi baholashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) manfaatlarini suiiste'mol qilish holatini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan uchrashuvlar va qarorlardan ixtiyoriy ravishda voz kechaman;

tashqi baholash jarayonlarida vujudga keladigan barcha qarama-qarshiliklar

va manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida Agentlikni xabardor qilaman;

tashqi baholash jarayonlarida ta'lim tashkilotidan hech qanday pul to'lovlar yoki sovg'alarni qabul qilmayman va ekspert sifatidagi vakolatlarimni suiiste'mol qilmayman;

ekspert komissiyasi sifatida men tomondan qabul qilingan va ko'rib chiqilgan barcha ma'lumotlar, hujjatlarni maxfiyligini ta'minlayman hamda ulardan faqatgina davlat akkreditatsiyasi maqsadida foydalanaman, shuningdek, ta'lim tashkiloti yoki Agentlik mas'ul xodimining ruxsatisiz boshqa shaxsga taqdim qilmayman;

tashqi baholash bilan bog'liq ishchi hujjatlardagi ma'lumotlar bo'yicha ta'lim tashkilotining vakillariga xabar bermayman.

Davlat akkreditatsiyasi yakunlangandan so'ng, Akkreditatsiya komissiyasiga barcha hujjatlarni Agentlikka taqdim etaman.

Yuqorida belgilangan talablarga rioya qilmagan taqdirimda tegishli tartibda javobgarlikka tortilishim haqida ogohlantirildim.

(imzo)

(F.I.Sh.)

(sana)



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot